



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-43-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-78-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 72-7-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

2025-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2025-yil uchun belgilangan asosiy vazifalarni bajarish, Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 72-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24- moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi VII chaqiriq sakkizinchi sessiyasi:

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 22-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-78-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 72-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tuman hokimining 2025-yil 19-martdagi 59-7-96-Q/25-sonli qarori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining 2025-yil 19-martdagi 59-7-96-Q/25-sonli qarorida mas‘ullarga yuklatilgan topshiriqlarni bajarilishi bo‘yicha har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasiga hisobotlarini taqdim qilib borsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilib borish tuman Kengashi huzuridagi doimiy komissiyalar (A.Xudoyberdiyev, D.Mirzaxonova, M.Xolova) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, M.Rasulov, O.Shirinov, B.Sulaymonov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Qaror e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH